

“Shaxsiy hisobdagi qoldiq uchun Keshbek qo‘shib berish” Aksiyasi Qoidalari

2025 yil 27 yanvarda qilingan tahrir

“Shaxsiy hisobdagi qoldiq uchun Keshbek qo‘shib berish” Aksiyasi (keyinchalik Aksiya deb yuritiladi)) “Humans” mas’uliyati cheklangan Jamiyati manzili: 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko‘ch’asi. 2-B-uy, INN 306624856 (Humans) tomonidan Humans Sodiqlik Dasturi doirasida o‘tkazilmoqda.

1. AKSIYA HAQIDA MA'LUMOT

1.1. Mazkur Qoidalar matnida katta harflar bilan yoziladigan so‘zlar atamalardir. Atamalarning ta’rifi agar mazkur qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, Humans aloqa xizmatlari ko‘rsatish Shartlari va www.humans.uz saytida joylashtirilgan Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarida keltirib o‘tilgan.

1.2. Aksiya ishtirokchilari — Humans aloqa xizmatlarini ko‘rsatish Shartlarini qabul qilish orqali Humans bilan aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Shartnoma tuzgan va Qoidalarning 2-bo‘limida qayd etilgan boshqa harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxs bo‘lgan mijozlardir.

1.3. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi.

1.4. Hisob kuni: Bonuslar qo‘shib beriladigan taqvim kunidir.

1.5. Aksiya o‘tkazilish muddati: 27.01.2025dan cheklanmagan muddat amal qiladi.

2. AKSIYA TAVSIFI

2.1. Aksiya o‘tkazilish davri va Aksiya Qoidalarining 2.2.-bandida ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilinganda, Aksiya Ishtirokchisi har kuni Ishtirokchi Shaxsiy hisobidagi balansdan Hisob kuni oxiridagi qoldiq summasidan (keyinchalik matnda Qoldiq deb yuritiladi) yillik 35% hisobdan (o‘ttiz besh foiz) Ishtirokchi Keshbek-hisobiga qo‘shib beriladigan Keshbek shaklida Bonus (keyinchalik matnda Bonus deb yuritiladi) oladi. Bonus hajmi hisobi mazkur Qoidalarning 2.3.-bandi shartlariga muvofiq, har kuni amalga oshadi.

2.2. Aksiya Shartlari

2.2.1. Aksiyada quyidagi talablarga muvofiq Ishtirokchilar qatnashishi mumkin:

- Bonus hisoblanayotganida Ishtirokchining Shaxsiy hisobidagi qoldiq 500 000 (besh yuz ming) so‘mdan kam bo‘lmasa;

- Humans sodiqlik Dasturida ishtiroki to'xtatilmagan yoki bekor qilinmagan Ishtirokchi Humans sodiqlik Dasturining amaldagi Ishtirokchisi hisoblansa;

2.3. Aksiya doirasida Bonus hisoblanish tartibi

Aksiyada ishtirok etishning bir kuni uchun Bonus $35\%/365=0,0959\%$ formulasiga muvofiq, foizning o'n mingdan bir qismigacha yaxlitlangan Qoldiqning foizi sifatida hisoblanadi (nol nuqta to'qqiz yuz ellik to'qqiz foizning o'n mingdan bir qismi)*Qoldiq.

Bonus faqat 500 000 UZS'dan ortiq mablag'lar uchun hisobga olinadi.

Bonus miqdori 1 so'mgacha yaxlitlanadi.

Bitta Ishtirokchiga bir kalendar oyi davomida hisoblangan Bonuslarning maksimal miqdori CHEGARALANMAGAN.

Qoldiqni aniqlash uchun Operatorning ixtiyoriga ko'ra, hisobot kunidan keying har kuni soat 00:00 dan 06.00 gacha bo'lgan davrdagi har qanday haqiqiy Qoldiqlardan foydalanish mumkin.

2.4. Bonusni Keshbek-hisobga o'tkazib berish 2.2. va 2.3.-bandlarda bayon qilingan mezonlarga Ishtirokchining muvofiq kelishi holatida Bonus hisobi nihoyalangach, Aksiya o'tkazilish davrida har kuni amalga oshiriladi.

2.5. Joriy Aksiyada qatnashayotgan Ishtirokchi Humans Sodiqlik Dasturiga ko'ra, Humans tomonidan o'tkaziladigan boshqa Aksiyalar doirasida qatnashish va Bonuslar olishga haqli.

2.6. Ishtirokchi olgan bonuslarini qat'iy Humans sodiqlik Dasturi shartlariga muvofiq qo'llashi mumkin va Bonuslarni pul-mablag' tarzida olishi mumkin emas.

3. YAKUNIY QOIDALAR

3.1. Mazkur Qoidalar Humansning Saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda mazkur Qoidalarni o'zgartirish yoki tegishli ma'lumotni oldindan Saytda joylashtirish orqali Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabardor qilish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasidir. Saytda e'lon qilingan paytdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan va Aksiya bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Mijoz tarafidan Qoidalarning 2-bo'limida sanab o'tilgan harakatlari jismoniy shaxslarga qarata taklif sanalgan Qoidalarga to'liq va qat'iy roziligini anglatadi.

3.3. Mazkur Qoidalar tomonidan tartibga solinmagan boshqa holatlar uchun Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalari amaldadir.